



Sharofat XUDOYBERGANOVA,
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti o'qituvchisi
E-mail: sharofat19913112@gmail.com

Ma'mun universiteti professori R.Razakova taqrizi asosida

PSYCHOLOGICAL RESILIENCE CHARACTERISTICS OF THE INDIVIDUAL IN SAFEGUARDING ADOLESCENTS FROM THE INFLUENCES OF MASS CULTURE AND MANIPULATION

Annotation

This article analyzes the role of personal psychological resilience as a leading factor in protecting adolescents from the influence of mass culture and various manipulative impacts. The study examines psychological vulnerabilities typical of adolescence, the effects of external informational pressure, social networks, and mass culture on adolescents' value systems. The significance of key components of psychological resilience - emotional stability, independent thinking, critical thinking, self-awareness, and social adaptation skills - as effective protective mechanisms is substantiated.

Keywords: adolescence, mass culture, manipulative influences, psychological resilience, emotional stability, critical thinking, personality development, social adaptation.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ УСТОЙЧИВОСТИ ЛИЧНОСТИ КАК ФАКТОР ЗАЩИТЫ ПОДРОСТКОВ ОТ ДЕСТРУКТИВНОГО ВЛИЯНИЯ МАССОВОЙ КУЛЬТУРЫ И МАНИПУЛЯТИВНЫХ ВОЗДЕЙСТВИЙ

Аннотация

В данной статье анализируется роль психологической устойчивости личности как ведущего фактора в защите подростков от влияния массовой культуры и различных манипулятивных воздействий. В исследовании рассматриваются психологические уязвимости, характерные для подросткового возраста, влияние внешнего информационного давления, социальных сетей и массовой культуры на систему ценностей подростков. Обосновывается значение основных компонентов психологической устойчивости - эмоциональной стабильности, самостоятельного мышления, критического мышления, самосознания и навыков социальной адаптации - как эффективных защитных механизмов.

Ключевые слова: подростковый возраст, массовая культура, манипулятивные воздействия, психологическая устойчивость, эмоциональная стабильность, критическое мышление, развитие личности, социальная адаптация.

O'SMIRLARNI OMMAVIY MADANIYAT VA MANIPULYATSION TA'SIRLARIDAN HIMOYA QILISHDA SHAXSNING PSIXOLOGIK BARQARORLIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada o'smirlarni ommaviy madaniyat va turli manipulyatsion ta'sirlardan himoya qilish jarayonida shaxsning psixologik barqarorlik xususiyatlari yetakchi omil ekanligi tahlil etiladi. Tadqiqotda o'smirlik davriga xos psixologik zaifliklar, tashqi axborot bosimi, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy madaniyatning qadriyatlar tizimiga ta'siri yoritilgan. Shuningdek, psixologik barqarorlikning asosiy komponentlari - emotsional barqarorlik, mustaqil fikrlash, tanqidiy tafakkur, o'zini anglash va ijtimoiy moslashuv ko'nikmalarining himoya mexanizmi sifatidagi ahamiyati asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: o'smirlik davri, ommaviy madaniyat, manipulyatsion ta'sirlar, psixologik barqarorlik, emotsional barqarorlik, tanqidiy fikrlash, shaxs rivoji, ijtimoiy moslashuv.

Kirish. Zamonaviy globallashuv va axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi sharoitida jamiyat hayotining barcha sohalarida tub o'zgarishlar yuz bermoqda. Ayniqsa, ommaviy madaniyat va raqamli axborot makonining kengayishi o'smirlar ongiga kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. O'smirlik davri shaxs shakllanishining muhim bosqichi bo'lib, ushbu davrda individning psixologik, ijtimoiy va axloqiy rivojida beqarorlik holatlari tez-tez kuzatiladi. Shu bois o'smirlarni ommaviy madaniyat va turli manipulyatsion ta'sirlardan himoya qilish masalasi bugungi kunda dolzarb ilmiy-pedagogik muammo sifatida namoyon bo'lmoqda. Ommaviy madaniyat orqali targ'ib etilayotgan iste'molchilik ruhida qadriyatlar, virtual hayotning ustuvorligi va ijtimoiy tarmoqlardagi yashirin psixologik manipulyatsiyalar o'smir shaxsining axloqiy-ruhiy rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu holat o'smirlarning hayotiy qarashlari, ijtimoiy xulqi va shaxsiy identifikatsiyasida muayyan deformatsiyalarga olib kelmoqda. Mazkur jarayonda o'smir shaxsining psixologik

barqarorlik darajasi tashqi ta'sirlarga qarshi turishning muhim mezon sifatida ahamiyat kasb etadi.

Psixologik barqarorlik shaxsning stressli vaziyatlarga moslasha olish, emotsional muvozanatni saqlash, mustaqil va tanqidiy fikrlash qobiliyatini namoyon etishida namoyon bo'ladi. O'smirlik davrida ushbu sifatlarning yetarli darajada shakllanmaganligi ularning manipulyatsion axborotlarga nisbatan tez berilib ketishiga sabab bo'ladi. Shu nuqtai nazardan, o'smir shaxsida psixologik barqarorlikni rivojlantirish masalasi ularni ommaviy madaniyatning salbiy ta'sirlaridan himoya qilishning samarali mexanizmi sifatida qaralmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O'smirlik davrining psixologik xususiyatlari, ommaviy madaniyatning shaxs rivojiga ta'siri hamda psixologik barqarorlik muammosi psixologiya, pedagogika va sotsiologiya fanlarida turli yo'nalishlarda tadqiq etilgan. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mazkur mavzu alohida jihatlar bo'yicha yetarlicha

o'rganilgan bo'lsa-da, ularning o'zaro bog'liqligi kompleks yondashuv asosida kam tadqiq etilgan.

O'smirlar davrining psixologik rivojlanish qonuniyatlari klassik va zamonaviy psixologik tadqiqotlarda keng yoritilgan. Xususan, L.S. Vigotskiy, D.B. Elkonin, A.N. Leontev kabi olimlar o'smirlar davrini shaxsiy o'zini anglash, mustaqil fikrlash va ijtimoiy pozitsiyaning shakllanish bosqichi sifatida talqin qilganlar. Ularning tadqiqotlarida o'smirlar davrida emotsional beqarorlik, ichki ziddiyatlar va tashqi baholanishga yuqori ehtiyoj mavjudligi ilmiy asoslangan. Ushbu holatlar o'smirlarning tashqi axborot ta'sirlariga nisbatan sezgirlikni kuchaytiradi. Zamonaviy tadqiqotlarda o'smirlar ongiga ommaviy madaniyat va raqamli axborot vositalarining ta'siri alohida e'tibor markaziga aylangan. Xorijiy va mahalliy olimlar ommaviy madaniyatning yoshlar qadriyatlarini tizimini o'zgartirishi, ijtimoiy xulq-atvoriga ta'siri hamda shaxs identifikatsiyasida yuzaga keladigan muammolarni tahlil qilganlar. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ommaviy madaniyat orqali targ'ib etilayotgan sun'iy ideal va stereotiplar o'smirlarning real hayotiy maqsadlarini noto'g'ri shakllantirishiga sabab bo'lishi mumkin. Manipulyatsion ta'sirlar masalasi axborot-psixologik xavfsizlik doirasida o'rganilib, ularning shaxs ongiga yashirin ta'sir mexanizmlari ilmiy jihatdan asoslangan. Ayrim tadqiqotchilar manipulyatsiyani shaxsning tanqidiy tafakkuri sust bo'lgan holatlarda samarali ta'sir ko'rsatuvchi jarayon sifatida baholaydilar. O'smirlar davrida mustaqil fikrlash va tanqidiy tahlil ko'nikmalarining yetarli darajada rivojlanmaganligi manipulyatsion ta'sirlar xavfini oshiradi.

Psixologik barqarorlik muammosi esa shaxsning stressga chidamliligi, moslashuvchanligi va emotsional muvozanatini saqlash qobiliyati sifatida talqin qilinadi. Ilmiy adabiyotlarda psixologik barqarorlikning tarkibiy qismlari sifatida emotsional barqarorlik, o'zini anglash, ijtimoiy moslashuv va hayotiy maqsadlarning aniqligi ko'rsatib o'tilgan. Ayrim tadqiqotlarda ushbu sifatlar shaxsni salbiy tashqi ta'sirlardan himoya qiluvchi psixologik mexanizm sifatida baholanadi. Mahalliy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda o'smirlar tarbiyasida oilaviy muhit, ta'lim muassasalari va ijtimoiy muhitning ahamiyati alohida ta'kidlanadi. Ayniqsa, pedagogik va psixologik qo'llab-quvvatlash, tarbiyaviy ishlarning tizimli tashkil etilishi o'smirlar shaxsida psixologik barqarorlikni shakllantirishda muhim omil sifatida e'tirof etiladi. Shu bilan birga, mavjud ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, o'smirlarni ommaviy madaniyat va manipulyatsion ta'sirlardan himoya qilishda psixologik barqarorlik xususiyatlarini yetakchi omil sifatida kompleks tarzda o'rganishga ehtiyoj mavjud. Mazkur holat ushbu tadqiqotning ilmiy ahamiyatini belgilab, mavzuni chuqurroq tadqiq etish zarurligini ko'rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot o'smirlarni ommaviy madaniyat va manipulyatsion ta'sirlardan himoya qilishda shaxs psixologik barqarorlik xususiyatlarining yetakchi omil sifatidagi ahamiyatini aniqlashga qaratilgan bo'lib, tadqiqot jarayonida tizimli va shaxsga yo'naltirilgan metodologik yondashuvlar asos qilib olindi. Tadqiqotning nazariy-metodologik asosi shaxs rivoji va yosh psixologiyasi sohasidagi klassik va zamonaviy konsepsiyalar, shuningdek, axborot-psixologik xavfsizlik va shaxsning axborot muhitiga moslashuvi haqidagi ilmiy qarashlardan iborat. Ushbu yondashuvlar o'smirlar shaxsining ommaviy madaniyat va manipulyatsion axborot ta'sirlariga nisbatan psixologik barqarorlik darajasini aniqlash imkonini berdi.

Empirik tadqiqot jarayonida o'smirlarning axborot-psixologik barqarorlik darajasini aniqlash maqsadida V.E. Petrovaning "Axborot-psixologik barqarorlikning ekspress baholash" testi qo'llanildi. Mazkur test shaxsning axborot

oqimlariga nisbatan emotsional barqarorligi, tanqidiy munosabati, manipulyatsion ta'sirlarga beriluvchanlik darajasi hamda axborotni ongli qabul qilish qobiliyatini tezkor baholash imkonini beradi. Tadqiqotda qo'llanilgan metodlar qatoriga kuzatish, suhbat va so'rovnomma metodlari ham kiritilib, ular test natijalarini to'ldiruvchi va aniqlashtiruvchi vosita sifatida xizmat qildi. Ushbu metodlar yordamida o'smirlarning ommaviy madaniyatga munosabati, axborot manbalaridan foydalanish xususiyatlari hamda ijtimoiy tarmoqlardagi faolligi o'rganildi. Tadqiqot tajriba-sinov shaklida tashkil etilib, unda o'smirlar orasida axborot-psixologik barqarorlik darajasi dastlabki (diagnostik) va yakuniy bosqichlarda baholandi. Tajriba jarayonida psixologik barqarorlikni rivojlantirishga qaratilgan trening mashg'ulotlari va profilaktik suhbatlar tashkil etildi. Olingan empirik ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilishda matematik-statistik metodlardan foydalanildi. Xususan, foizli ko'rsatkichlar, o'rtacha qiymatlar va taqqoslovchi tahlil usullari yordamida test natijalari umumlashtirildi. Natijalarning ishonchiligi statistik tahlil asosida baholandi. Mazkur metodologiya o'smirlarning axborot-psixologik barqarorlik darajasini aniqlash, ommaviy madaniyat va manipulyatsion ta'sirlarga nisbatan psixologik immunitetini baholash hamda tadqiqot maqsadlariga mos ilmiy xulosalar chiqarish imkonini berdi. Tadqiqot jarayonida o'smirlarning ommaviy madaniyat va manipulyatsion ta'sirlarga nisbatan psixologik barqarorlik darajasi empirik jihatdan o'rganildi. V.E. Petrovaning "Axborot-psixologik barqarorlikning ekspress baholash" testi yordamida olingan natijalar o'smirlar davrida axborot ta'sirlariga nisbatan sezgirlik darajasi yuqorilgini ko'rsatdi. Dastlabki diagnostika natijalari o'smirlarning muayyan qismida axborot-psixologik barqarorlik past yoki o'rtacha darajada ekanligini aniqlash imkonini berdi. Test natijalarining tahlili shuni ko'rsatadiki, psixologik barqarorlik darajasi past bo'lgan o'smirlar ommaviy madaniyatda targ'ib etilayotgan stereotiplar va manipulyativ axborotlarga nisbatan kamroq tanqidiy munosabat bildirishga moyil. Ushbu holat ularning hissiy impulsivligi, ijtimoiy baholanishga kuchli ehtiyoji va mustaqil fikrlash ko'nikmalarining yetarli darajada shakllanmaganligi bilan izohlanadi. Bu natijalar o'smirlar davrining psixologik xususiyatlari haqidagi klassik ilmiy qarashlar bilan mos keladi.

Tajriba-sinov bosqichida o'smirlarda axborot-psixologik barqarorlikni rivojlantirishga qaratilgan trening mashg'ulotlari va profilaktik suhbatlar tashkil etildi. Yakuniy diagnostika natijalari dastlabki ko'rsatkichlar bilan taqqoslanganda, psixologik barqarorlik darajasining sezilarli darajada oshganligini ko'rsatdi. Ayniqsa, emotsional barqarorlik, axborotni tanqidiy tahlil qilish va manipulyatsion ta'sirlarga qarshi turish ko'nikmalarida ijobiy o'zgarishlar kuzatildi. Olingan natijalar psixologik barqarorlik shaxsni salbiy axborot ta'sirlaridan himoya qiluvchi muhim mexanizm ekanligini tasdiqlaydi. Tadqiqot natijalari V.E. Petrova tomonidan ilgari surilgan axborot-psixologik barqarorlik konsepsiyasining amaliy ahamiyatini yana bir bor ko'rsatib berdi. Shu bilan birga, natijalar o'smirlarda psixologik barqarorlikni shakllantirishda ta'lim muassasalari va oilaviy muhitning tizimli hamkorligi muhim ekanligini ko'rsatdi. Muhokama jarayonida aniqlangan natijalar ilgari o'tkazilgan tadqiqotlar bilan qiyosiy tahlil qilindi. Xususan, o'smirlarda tanqidiy fikrlash va axborot savodxonligini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik yondashuvlar psixologik barqarorlikni mustahkamlashda samarali ekanligi tasdiqlandi. Biroq, tadqiqot cheklovli sifatida respondentlar sonining chegaralanganligi va axborot muhitining tezkor o'zgaruvchanligi natijalarning umumlashtirilishida ehtiyotkorlikni talab etishi qayd etiladi. Umuman olganda, tadqiqot natijalari o'smirlarni ommaviy madaniyat va manipulyatsion ta'sirlardan himoya qilishda

axborot-psixologik barqarorlikni rivojlantirish muhim strategik vazifa ekanligini ko'rsatadi. Ushbu xulosalar pedagoglar, psixologlar va ta'lim muassasalari faoliyatida amaliy tavsiyalar ishlab chiqish uchun ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar. Mazkur tadqiqot jarayonida o'smirlarning ommaviy madaniyat va manipulyatsion ta'sirlarga nisbatan axborot-psixologik barqarorlik darajasi empirik jihatdan o'rganildi. Tadqiqotda V.E. Petrovaning "Axborot-psixologik barqarorlikning ekspress baholash" testi yordamida dastlabki va yakuniy diagnostika ishlari amalga oshirildi. Dastlabki diagnostika natijalari shuni ko'rsatdiki, tadqiqotda ishtirok etgan o'smirlarning sezilarli qismida axborot-psixologik barqarorlik darajasi o'rtacha va past ko'rsatkichlarda namoyon bo'lgan. Xususan, respondentlarning bir qismida manipulyatsion axborotlarga nisbatan tanqidiy munosabatning sustligi, emotsional impulsivlikning yuqoriligi hamda axborotni ongli tahlil qilish ko'nikmalarining yetarli darajada shakllanmaganligi aniqlandi. Bu holat o'smirlarning ommaviy madaniyat ta'siriga nisbatan zaifligini tasdiqlaydi. Tajriba-sinov ishlari doirasida o'smirlarda axborot-psixologik barqarorlikni rivojlantirishga qaratilgan psixologik treninglar, media savodxonlik mashg'ulotlari va profilaktik suhbatlar tashkil etildi. Ushbu mashg'ulotlar o'smirlarning emotsional barqarorligini mustahkamlash, mustaqil va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish hamda manipulyatsion ta'sirlarni aniqlash qobiliyatini oshirishga yo'naltirildi. Yakuniy diagnostika natijalari dastlabki ko'rsatkichlar bilan taqqoslanganda, o'smirlarning axborot-psixologik barqarorlik darajasida ijobiy dinamikani ko'rsatdi. Jumladan, yuqori darajadagi psixologik barqarorlik ko'rsatkichiga ega bo'lgan o'smirlar sonining oshgani, past ko'rsatkichlarning esa kamaygani kuzatildi. Ayniqsa, tanqidiy fikrlash va axborotni ongli qabul qilish ko'rsatkichlarida sezilarli o'sish qayd etildi. Matematik-statistik tahlil natijalari o'tkazilgan tajriba-sinov ishlarining samaradorligini tasdiqladi. O'rtacha ko'rsatkichlar va foizli tahlil natijalari asosida o'smirlarda psixologik barqarorlikni rivojlantirishga qaratilgan metodik yondashuvlarning samarali ekanligi aniqlandi. Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, axborot-psixologik barqarorlik o'smirlarni

ommaviy madaniyat va manipulyatsion ta'sirlardan himoya qilishda muhim omil hisoblanadi. Tadqiqot natijalari o'smirlar bilan ishlavchi pedagog va psixologlar faoliyatida amaliy qo'llash uchun ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar. Mazkur tadqiqot o'smirlarni ommaviy madaniyat va manipulyatsion ta'sirlardan himoya qilishda shaxs psixologik barqarorlik xususiyatlarining yetakchi omil ekanligini aniqlashga qaratildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki:

O'smirlik davrining psixologik xususiyatlari ularni tashqi axborot ta'sirlariga sezgir qiladi. Emotsional beqarorlik, tengdoshlar fikriga qaramlik va mustaqil fikrlash ko'nikmalarining yetarli darajada rivojlanmaganligi manipulyatsion ta'sirlarga nisbatan zaiflikni oshiradi.

Axborot-psixologik barqarorlik - emotsional barqarorlik, tanqidiy tafakkur, mustaqil fikrlash va ijtimoiy moslashuv ko'nikmalarini o'z ichiga olgan tarkibiy sifatlar tizimi bo'lib, u o'smirlarni ommaviy madaniyat va manipulyatsion axborot ta'sirlaridan himoya qiladi.

Empirik tadqiqot natijalari, V.E. Petrovaning "Axborot-psixologik barqarorlikning ekspress baholash" testi yordamida olingan ko'rsatkichlar shuni ko'rsatdiki, dastlabki diagnostika bosqichida o'smirlarning katta qismida axborot-psixologik barqarorlik darajasi o'rtacha va past bo'lgan. Tajriba-sinov ishlari va psixologik trening mashg'ulotlari yakunida sezilarli o'sish qayd etildi, bu esa psixologik barqarorlikni rivojlantirishning samarali ekanligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalari pedagogik va psixologik tavsiyalar ishlab chiqishda amaliy asos bo'lib xizmat qiladi. O'smirlarni axborot makonidagi manipulyatsion ta'sirlardan himoya qilish uchun oilaning, ta'lim muassasalarining va ijtimoiy muhitning kompleks yondashuvi zarurligi aniqlangan.

Shunday qilib, o'smirlarning shaxs psixologik barqarorligini rivojlantirish - ularni ommaviy madaniyat va manipulyatsion axborot ta'sirlaridan himoya qilishning asosiy va yetakchi omili sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqot natijalari psixologlar, pedagoglar va ta'lim muassasalari uchun amaliy qo'llanilishi mumkin bo'lgan ilmiy xulosalarni taqdim etdi.

ADABIYOTLAR

1. Petrova V.E. Axborot-psixologik barqarorlikning ekspress baholash testi. Moskva: Psixodiagnostika, 2006.
2. Karpman V. Axborot makoni va yoshlar psixologiyasi. Moskva: Nauka, 2010.
3. Seligman M.E.P. Positive Psychology and Resilience. New York: Free Press, 2002.
4. Umarov B., Axmedova M. Axborot tizimlarida axborot-psixologik xavfsizlik. Ijtimoiy-gumanitar oliy ta'lim yo'nalishi talabalari uchun o'quv qo'llanma. Toshkent. 2013 y.
5. Yuldasheva M. Jamiyat axboriy jarayonlarining barkamol avlod shakllanishiga ta'siri // J. Zamonaviy ta'lim. 2018 y. 10 son.
6. Aripov M. Internet va elektron pochta asoslari. -T.; 2000. – 218b.
7. Maraximov A.R., Raxmanqulova S.I. Internet va undan foydalanish -Toshkent, 2001 y.
8. Abduqodirov A., Xaitov A., Rashidov R. Axborot texnologiyalari. -T.: "O'qituvchi», 2002 y.
9. Ivanova E.V. O'smirlar va media ta'siri: Psixologik jihatlar. Moskva: Nauka, 2014.
10. Kuznetsov V.V. Shaxs psixologik barqarorligi va uning pedagogik rivojlanishi. Sankt- Peterburg: Piter, 2011.